

EXPRESSIONS WITH THE FRENCH COMPONENT *FAMILLE* AS A SPECIAL MODEL OF THE "FAMILY" CONCEPT

Nigorabonu Nizomiddinovna SUVONOVA

Candidate of philological sciences, Associate Professor
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan

FRANSUZCHA *FAMILLE* KOMPONENTLI IBORALAR "OILA" KONSEPTINING MAXSUS MODELI SIFATIDA

Nigorabonu Nizomiddinovna SUVONOVA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston

ВЫРАЖЕНИЯ С ФРАНЦУЗСКИМ КОМПОНЕНТОМ *FAMILLE* КАК ОСОБАЯ МОДЕЛЬ КОНЦЕПТА "СЕМЬЯ"

Нигорабону Низомиддиновна СУВОНОВА

Кандидат филологических наук, доцент
Самаркандский государственный институт иностранных языков
Самарканд, Узбекистан snigorabonu@gmail.com

For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Suvonova N. Fransuzcha famille komponentli iboralar "oila" konseptining maxsus modeli sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 2. — B. 18-29.

<https://doi.org/10.36078/1715156103>

Received: February 05, 2024

Accepted: April 17, 2024

Published: April 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. The article attempts to express the lexemes *famille* in French as a special model reflecting the concept of "Family". In particular, different forms of conceptual thinking, such as "Family" are revealed by comparing the lexical meanings of the lexeme *famille* with the shades of phraseological meaning. That is, this concept has been analyzed with the help of the *famille* component on the basis of "Father", "Mother", "Child", "whole family", "family outside the family" micro-conceptual concepts. According to the results of the analysis, the uniqueness of the French people within the framework of the concept of "Family" has been classified by the connection with the national-cultural views of this nation on the basis of the four elements: language, culture, people, and thinking. Various lexical features given in some French dictionaries were taken into account to fully understand the semantic content of the French lexeme *famille*. In the process of semantically researching the French lexeme *famille*, sociolinguistic features have also been taken into consideration. The semantic shades of phraseological expressions with the *famille* component have been analyzed. This situation causes a significant expansion of the category of linguistic meaning specific to the analyzed word. It can be considered that a complex analysis of phrases with the lexeme *famille* in the French language as a unique "model" for expressing the concept of family from different points of view helps to explain the exact position of phraseological units at the lexical-semantic level to a certain extent.

Keywords: concept of family; concept; phrase; shades of phraseological meaning; microconceptual concepts; component.

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz tilidagi *famille* leksemali iboralar “oila” konseptini aks ettiruvchi maxsus model sifatida talqin qilingan. Xususan, *famille* leksemasining lugʻaviy maʼnolari bilan frazeologik maʼno ottenkalarini oʻzaro taqqoslash orqali “oila” konseptining turli xil tafakkur shakllari ochib berilgan. Yaʼni bu konsept *famille* komponenti yordamida “Ota” — “Ona” — “Farzand” — “butun oila” — “oiladan tashqari oila” singari mikrokonseptual tushunchalar zahirida tahlil qilingan. Tahlil natijalariga koʻra, fransuz xalqining aynan “Oila” konsepti doirasidagi oʻziga xosligi bu xalq milliy-madaniy qarashlari bilan bogʻliqligi til, madaniyat, inson va tafakkur toʻrtligi asosida tavsiflangan. Fransuz tilidagi *famille* leksemasining semantik mazmun-mohiyatini toʻlaqonli anglash maqsadida ayrim fransuz tili lugʻatlaridagi *famille* soʻziga berilgan turfa lugʻaviy xususiyatlar eʼtiborga olingan. Fransuzcha *famille* leksemasini semantik jihatdan tadqiq qilish jarayonida faqat uning lugʻaviy izohlari bilan chegaralanib qolmasdan, ushbu soʻz semantikasida sotsiolingvistik maʼlumotlar ham inobatga olingan. Yaʼni *famille* komponentli frazeologik iboralarning semantik maʼno ottenkalari tahlil qilingan. Negaki ushbu holat tahlil qilinayotgan soʻzga xos lisoniy maʼno kategoriyasi doirasining ancha kengayishiga sabab boʻladi. Fransuz tilida mavjud *famille* leksemali iboralarni oila konseptini ifodalashdagi oʻziga xos “model” sifatida turli nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilish frazeologik birliklarning leksik-semantik sathdagi aniq oʻrnini izohlashga maʼlum bir darajada yordam beradi, deb hisoblash mumkin.

Kalit soʻzlar: oila konsepti; tushuncha; ibora; frazeologik maʼno ottenkalari; mikrokonseptual tushunchalar; komponent.

Аннотация. В статье выражения с лексемой *famille* на французском языке интерпретируются как особая модель, отражающая концепт “семья”. В частности, путем сопоставления оттенков фразеологического значения с лексическими значениями лексемы *famille* выявляются различные формы понятия “семья”. То есть это понятие анализировалось с помощью компонента *famille* на основе таких микроконцептуальных понятий, как “отец”, “мать”, “ребенок”, “вся семья”, “семья вне семьи”. Согласно результатам анализа, самобытность французского народа именно в рамках понятия “семья” была охарактеризована как связанная с национально-культурными видениями этого народа, на основе четырех принципов: языка, культуры, человека и мышления. В целях более полного понимания семантического содержания лексемы *famille* во французском языке были приняты во внимание типовые лексические особенности, присущие слову *famille* в некоторых словарях французского языка. В процессе семантического исследования лексемы французского *famille* учитывались не только ее лексические интерпретации, но и социолингвистические данные в семантике этого слова. То есть были проанализированы оттенки смыслового значения фразеологических выражений с компонентом *famille*. Это обстоятельство приводит к значительному расширению диапазона языковых категорий значения, присущих анализируемому слову. Можно считать, что комплексный анализ существующих во французском языке лексемных словосочетаний *famille* с разных точек зрения как своеобразной “модели” выражения концепта “семья” в определенной степени способствует трактовке точного положения фразеологизмов на лексико-семантическом уровне.

Ключевые слова: концепт “семья”; понятие; выражение; микроконцептуальные понятия; компонент.

Kirish

Fransuz frazeologiyasida *famille* — *oila* komponentli iboralar o'ziga xos ma'no va xususiyatlarga ega bo'lib, ularni turli xil lingvistik tadqiqot metodlari orqali, xususan, konseptual jihatdan keng tarzda tahlil qilish mumkin. Darhaqiqat, *oila* tushunchasini o'ziga jo qilgan bunday iboralarni frazeologiya doirasidagi lingvokognitiv xususiyatlarni ochib berishdagi serqirra jihatlariga ko'ra turli xalq va tillar o'rtasidagi milliy-madaniy jihatlarni talqin qilishdagi eng zaruriy ma'no ottenkalari bilan ajralib turadigan o'ziga xos frazeologik birliklar sifatida tavsiflash o'rinlidir. Shu sababli fransuz tilidagi *famille* komponentli iboralar ko'plab tadqiqot obyektlari sifatida xizmat qilishga haqlidir. Shunday ekan, fransuz tilida *oila* ma'nosidagi *famille* leksemasi ishtirokida hosil bo'lgan yuzga yaqin frazeologik iboralar mazkur kichik izlanishning ham asosiy obyekti bo'la oladi. Zero, tilshunos Sh.Safarov qayd etganidek, *oila* va undagi qadriyatlar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik zahirida yorqin namoyon bo'lish hollarini inobatga olgan holda ilmiy-madaniy mazmun qolipiga ega bo'lgan bunday konseptlarni tahlil qilishda *til—inson—madaniyat—tafakkur* to'rtligiga amal qilish lozimdir (9, 268).

“*Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydi-ki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor*” (1, 67). Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda *oila* — jamiyat ustuni, insoniyat mavjudligining fundamental asoslaridan biri sifatida til, madaniyat va tafakkur omillarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy hodisadir. Shu boisdan aynan *oila* ma'nosidagi fransuzcha *famille* leksemali iboralar fransuz tilida ko'pchilikni tashkil etishini inobatga olgan holda ularni *oila* konseptini ifodalovchi maxsus model sifatida tavsiflash mumkin, deb hisoblaymiz.

Asosiy qism

Avvalambor, ushbu leksemaning semantik mazmun-mohiyatini to'laqonli anglash uchun fransuz tili lug'atlaridagi *famille* so'ziga berilgan turfa lug'aviy xususiyatlarga e'tibor qilaylik. Masalan, *Le Robert (Dico en ligne)* lug'atida ushbu so'zning bir qancha ma'nolari berib o'tilgan (6). Xususan, *famille* so'zi antik davrda etimologik nuqtayi nazardan bir tom ostida yashovchi odamlar to'plami sifatida ta'riflangan. Didaktik jihatdan esa qon-qardoshligi bir bo'lgan va bir joyda birlashgan ittifoqli guruh ma'nosini ifodalagan. Masalan, *La famille antique, la famille moderne. Famille patriarcale*.

Ushbu so'z tor ma'noda aynan ota-ona va bolalardan tashkil topgan jamoa, deb ham talqin qilinadi. Masalan, *Fonder une famille. La vie de famille. Des familles*. Shuningdek, fransuz xalq tilida qo'llaniladigan *oila* xotirjamligini ifodalovchi *Une petite sieste des familles* so'z birikmasida ham tashvishsiz hayotdagi tinch *oila* davrasi tushuniladi. Bundan tashqari, ma'lum bir er-xotinning farzandlari ma'nosida ham keng qo'llaniladi. Masalan, *Une famille de cinq enfants. Père, mère de famille*.

Mazkur so'z keng ma'noda nasl-nasab, nikohdan o'tgan er-xotinlar yoki asrab olingan farzandlar ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan, *Nom de famille* — ya'ni patronimlar (ismi, sharifi va nasabi), *La famille de qqn, sa famille. Famille recomposée. Avoir un air de famille*. *Oila* a'zolarining bir

davrada yig'ilishi ham ushbu so'z ma'no ottenkalaridan biri sanaladi: *Être en famille, Réunion de famille*.

Shu bilan birga, avloddan avlodga o'tadigan oila vorisligi tushunchasi ham *famille* so'zi orqali ifodalanadi. Masalan: *Famille royale. Une famille de musiciens*. Gohida kinoya tariqasida *de bonne famille, qui appartient à une famille bourgeoise* iborasi ham fransuz xalqida keng ishlatiladi. Shuningdek, ota-onasining imtiyozli holatidan foydalanadigan oilaning o'g'li, ya'ni *oila erkasi* ma'nosida ham qo'llaniladi. Masalan, *Fils de famille — fils à papa* iborasi shu hihatdan to'liq mos keladi.

Fransuzcha *famille* so'zining keng ma'noda qo'llanilishiga xos yana bir jihati uning ma'lum bir sifat yoki determinativ predloglar bilan birga ishlatilganda u ifodalayotgan tushunchaning umumiylik kategoriyasi asosida aks etishidir. Masalan, *Famille de langues, Famille de mots*, ya'ni *tillar oilasi* yoki *so'zlar oilasi* deganda bir xildagi referensial tushunchalar majmui aks etadi. Ushbu so'zning bu turdagi ma'nosi, ayniqsa, hayvon va o'simliklar dunyosini tasniflashda juda qo'l keladi (masalan, *sudralib yuruvchilar oilasi, boshoqli / donli ekinlar oilasi* va hokazo).

Mazkur leksemaga tegishli lug'aviy izohlar xilma-xil bo'lib, uning semantik ma'nolari negizi asosida *oila* tushunchasi har tomonlama to'liq aks etgan. Biroq tilshunos Sh.Safarov ta'kidlariga amal qilsak, til birliklarini semantik jihatdan tadqiq qilish jarayonida faqat ularning lug'aviy izohlari bilan chegaralanish so'zlar semantik ma'nolarining torayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ushbu so'z semantikasiga pragmatik, sotsiolingvistik, psixolingvistik kabi til birliklari mundarijasining muhim qismlarini tashkil etadigan ma'lumotlarni ham inobatga olish lisoniy ma'no kategoriyasi doirasining ancha kengayishiga yordam beradi (9, 31). Shu boisdan quyida *famille* so'zining yuqorida ko'rib o'tilgan lug'aviy ma'no ottenkalarini uning iboralar mazmuni tarkibidagi ma'no ottenkalari bilan boyitishga harakat qilamiz. Mazkur so'zning lug'atlardagi izohlariga e'tibor qilishdan asosiy maqsad ham *famille* so'zining lug'aviy va frazeologik ma'nolarini o'zaro taqqoslashdan iboratdir. Buning uchun *famille* komponentli iboralarni ijtimoiy hodisa sifatidagi *oila* konsepti asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Aynan *oila* tushunchasi asosida hosil bo'lgan *famille* komponentli fransuzcha iboralar fransuz madaniyatiga xos milliy belgilarni aniqlash va fransuz madaniyati sohiblariga mos bo'lgan *oila* a'zolarining milliy-madaniy o'ziga xosligini o'rganishning asosiy aspektlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ma'lumki, tildagi mavjud leksik birliklarning semantik ma'no ottenkalari lisoniy va aqliy faoliyat orqali uzviy bog'liq. M. Chomskiy ham tilni an'anaviy tarzda inson ongi ko'zgusidir, deb ta'riflaydi (2,4). Masalan: *en famille — oila davrasida; famille inadaptée — muammoli oila; situation de famille — oilaviy ahvoli; une famille de jardiniers — oilaviy sulola; famille proche — yaqin qarindosh; soutien de famille — oila suyanchi; conseil de famille — oilaviy maslahat; grande famille — ahil oila; famille de robe — badavlat oila; attendre famille — farzand kutmoq* kabi frazeologik iboralar *famille* komponentidan tashkil topganligi uchun ham ularning har biri o'zlarida "*oila*" tushunchasini, qadriyat va milliy aspektlarni ifodalay olgan. Biroq fransuz tilida shunday iboralar, ya'ni *famille* so'zi ishtirokidagi ayrim frazeologik birliklar

mavjudki, ular o‘z tarkibida *famille* komponentini qabul qilganligiga qaramasdan, “oila” tushunchasidan biroz yiroq ma’nolarni ifodalashi ham mumkin. Biroq bunday ma’noli frazeologik iboralar fransuz tilida ozchilikni tashkil qiladi. Masalan:

- *pension de famille* — *hôtel*;
- *films de famille* — *cinéma d'amateurs*;
- *en bon père de famille* — *correctement, dignement*.
- *Les deux cents familles* — *un petit nombre de familles tiendrait en main la majorité des leviers économiques de la France*.

“Oila” tushunchasi doirasidagi fransuzcha frazeologik birliklar nafaqat oila ma’nosidagi *famille* so’zi ishtirokida, balki oila a’zolari nomlari, ya’ni *père* — *ota*, *mère* — *ona*, *fils* — o‘g‘il va *filles* — qiz so‘zlari ishtirokida ham hosil bo‘lishi mumkin. Masalan:

- *fils(fille) de famille* — *badavlat oila farzandi / erka qiz*;
- *le fils de la maison* — *xo‘jayinning o‘g‘li*;
- *un fils à papa* — *ota o‘g‘il*;
- *père adoptif* — *o‘gay ota*;
- *mère adoptive* — *o‘gay ona*;
- *le père de famille* — *oila boshlig‘i*;
- *vivre en bon père de famille* — *ahil oila bo‘lib yashamoq*;
- *la mère patrie* — *ona Vatan*.

Oila a’zolari nomlari ishtirokidagi fransuzcha iboralarining barchasi ham oila tushunchasi doirasidagi ma’nolarni ifodalamasligi mumkin. Masalan, fransuz tilidagi *papa*, *père* ya’ni *ota* so’zi ishtirokidagi frazeologik iboralarda bunday holat ko‘plab uchraydi. Xususan, quyidagi iboralar shular jumlasidandir:

- *à la papa* — *shoshmay, bamaylixotir, oshiqmay, xotirjamlik bilan*;
- *de papa* — *eskirgan, udumdan chiqqan, Almisohdan qolgan*;
- *le coup du père François* — *yuzga tortilgan tarsaki*;
- *le Père Noël* — *qorbobo*.

“Oila” konsepti doirasidagi frazeologik birliklarni tahlil qilish jarayonida mazkur iboralar o‘zlarining struktur tuzilishida mavjud o‘ziga xos xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Xususan, ularning aksariyati *Nom + de + famille* struktur tuzilishga egaligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, quyidagi iboralarga e’tibor qilaylik:

- *nom de famille* — *familiya*;
- *fiche de famille* — *oila ma’lumotlari yozilgan hujjat*;
- *soutien de famille* — *oila tayanchi*;
- *biens de famille* — *oilaviy mulk*;
- *chef de famille* — *oila boshlig‘i*;
- *esprit de famille* — *oilaviy inoqlik*;
- *situation de famille* — *oilaviy ahvol*;
- *fils (fille) de famille* — *oila erkatoyi*;
- *conseil de famille* — *oilaviy maslahat*;
- *les médecins de famille* — *oila shifokorlari*;
- *papiers de famille* — *oilaga tegishli hujjatlar*.

Keltirilgan bu misollardagi *de famille* (*de la famille*) shakli orqali ularda okkazional xususiyatlarning mavjudligi aks etgan va ushbu holat

ularni turg'un frazeologik iboralar sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Mazkur shakl, ya'ni *de famille* shakli yuqorida keltirilgan misollardagi kabi nafaqat otli iboralar tarkibida, balki kam bo'lsa-da fe'lli iboralar tarkibida ham uchrashi mumkin. Masalan: *être chargé de famille* — *oila g'amxo'ri bo'lmoq*; *être de bonne famille* — *e'tiborli oilaga mansub bo'lmoq*; *être de famille de robe* — *badavlat oiladan bo'lmoq* kabi iboralar shular jumlasidandir.

Qo'llanilayotgan predloglarning turiga ko'ra *de* predlogidan tashqari *en* predlogini ham ayrim hollarda uchratish mumkin. Masalan, *en famille*; *laver son linge sale en famille*. Fransuz tilidagi "oila" tushunchali frazeologik iboralar tarkibida *de famille* okkazional shakliga qarama-qarshi bo'lgan shakl, asosan *de la famille* shaklida erkin so'z birikmalari struktursida odatiy tarzda qo'llaniladi. Masalan:

- *code de la famille* — oila kodeksi;
- *planification de la famille* — oila qurishni rejalashtirish (ushbu birikma ingliz tilida kengroq ishlatiladi : *family planning*);
- *dessin de la famille* — oila tasviri tushirilgan surat va hokazo.

Quyida *oila* tushunchasi doirasidagi iboralar semantikasi va ularning o'ziga xos semantik maydon tuzilishini o'rganishga harakat qilamiz. Avvalambor, ushbu leksemaning yana boshqa lug'aviy izohlariga e'tibor qaratilsa, "Dictionnaire de l'Académie française" lug'atida (<https://www.dicocitations.com/dico-mot-definition/60216/famille>)

fransuzcha *famille* so'zi *Ensemble de personnes unies par le sang ou l'alliance*, ya'ni bir xil qondoshlikdagi kishilar guruhi tarzida tavsiflangan bo'lsa, yana boshqa manbada *Ensemble formé par les parents, les enfants et les serviteurs d'une maisonnée*, ya'ni ota-ona, farzandlar va xizmatkorlardan iborat oilaviy jamoa tarzida tavsiflangan (<https://www.dicocitations.com/dico-mot-definition/60216/famille>). Agar biz *oila* so'zini o'zbek tili nuqtayi nazaridan lug'aviy ma'nolariga e'tibor qaratsak, *bola-chaqa*, *urug'*, *avlod* va *er-xotin*, ularning farzandlari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui sifatida izohlangan (7,97). Demak, *oila* tushunchasi xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos ma'no kasb etadi, xususan, fransuz xalqida oilalarning o'ta ixcham tarkibda va ayrim oilalarda hatto xizmatkorlarning ham inobatga olinishi tushunilsa, o'zbek tilida esa ushbu xalqning oilaparvarligi tufayli u ancha keng tarkibni o'z ichiga oladi. Bundan ma'lumki, konsept qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar ko'p bosqichli tafakkur faoliyati mahsuli hisoblanadi (9, 268).

Darhaqiqat, *famille* — *oila* leksemasining lug'aviy mazmunidan kelib chiqqan holda uning tarkibiy tuzilishidagi *ota*, *ona* va *farzand* uchligi iboralar semantik mazmunining fundamental asosini tashkil etadi, deyish mumkin. Shunday ekan, fransuz tilida mavjud *famille* komponenti ishtirokidagi iboralar majmui o'rganilganda ularni aynan "*ota*" — "*ona*" — "*farzand*" — "*butun oila*" — "*oiladan tashqari oila*" singari mikrokonseptual tushunchalar ostida jamlash mumkinligi oydinlashadi. Ushbu o'rinda "*oiladan tashqari oila*" mikrokonsepti zamirida asosiy oiladan tashqari "*ikkinchi oila*" tushunchasi emas, balki "*qarindoshlar oilasi*" yoki "*ma'lum bir toifadagi narsa, predmet, hodisa va kishilar guruhi*" tushuniladi. Quyida har-bir semantik ma'nolarni ifodalovchi iboralar ro'yxatini keltirib o'tamiz. Agar I. A. Sternin ta'rifiga ko'ra oila

konseptiga xos mazkur mundarijani tayanch va ikkilamchi qatlamlarga ajratish mumkin bo'lsa, "ota" — "ona" — "farzand" — "butun oila" tayanch qatlamlarni tashkil etsa, "oiladan tashqari oila" ikkilamchi qatlamni tashkil etadi (10, 59). Mazkur tayanch leksemalarning referensiallik xususiyatlariga e'tibor qilinsa ham ular o'zlarida fransuz xalqiga xos milliylik ruhini aks ettira oladi (11, 39).

Oilaning "Ota" a'zosiga qaratilgan iboralar:

<i>soutien de famille</i>	- oila suyanchi;
<i>chargé de famille</i>	- oila g'amxo'ri;
<i>chef de famille</i>	- oila boshlig'i;
<i>être chargé de famille</i>	- oila g'amxo'ri bo'lmoq va boshqalar.

Ushbu iboralar ota semasining oiladagi maqomi, uning haqiqatdan oila yaratuvchisi va himoya qiluvchisi ekanligidan dalolat beradi. Ma'lumki, ota oilada o'ziga xos rahnamo rolini o'taydi. Shuning uchun ham o'zbek xalqida "Ota rozi — Xudo rozi" degan fikr bejizga aytilmagan. Etnologlar tahliliga ko'ra, agar madaniyatlararo farqlanish e'tiborga olinmasa, barcha xalqlarda ham an'anaviy patriarxal oilalarda ota: a) boquvchi; b) oila boshlig'i va c) tartib-intizom o'rnatuvchi; ko'p hollarda oiladan tashqari, ijtimoiy mehnat faoliyatida bevosita tarbiyachi sifatida maydonga chiqadi. Shuning barobarida otaning oiladagi roli avtoritar ma'no ham kasb etadi. Zero, "Ota matonati — farzandlar uchun jasorat sabog'i" degan hikmat zamirida ham chuqur ma'no bor. Azaldan erkak kishi Vatan himoyachisi, oila qo'rg'oni, ayniqsa, o'g'illar uchun mardlik va jasorat namunasi bo'lib kelgan (13, 21).

Oilaning "Ona" a'zosiga qaratilgan iboralar:

<i>attendre famille</i>	- farzand kutmoq (homilador bo'lish ma'nosida);
<i>chargé de famille</i>	- oila g'amxo'ri;
<i>famille monoparentale</i>	- yolg'iz ona (yoki ota)dan iborat bo'lgan oila va hokazo.

Oila konseptidagi ona obraziga tegishli iboralar tahlili asosan onaning farzandni dunyoga keltirish va unga g'amxo'rlik qilish vazifalariga ko'proq ishora qiladi. Bu esa onaning farzandlariga nisbatan mehribonlik siymosini aks ettiradi. Zero, farzand qalbini insoniy mehr-muhabbatga, ezgulikka to'yintiradigan ham ONAdir.

Oilaning "Bola" a'zosiga qaratilgan iboralar:

<i>appartenir à une famille</i>	- oilaning bir bo'lagi bo'lmoq;
<i>être de bonne famille</i>	- e'tiborli oilaga mansub bo'lmoq;
<i>être de famille de robe</i>	- badavlat oiladan bo'lmoq;
<i>fils (fille) de famille</i>	- oila erkasi;
<i>le benjamin de la famille</i>	- oila erkatoyi;
<i>renier une famille</i>	- oilani tark etmoq;
<i>enfant de famille</i>	- qonuniy / nikohli farzand va hokazo.

Ushbu keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, oilada farzandga yo'naltirilgan iboralar uning oila va jamiyatda tutgan o'rniga qarab hosil bo'lgan. Xususan, farzandning oila tarkibini tashkil etuvchi subyekt ekanligi, uning oiladagi mavqeyi, qanaqa oilaga mansubligi, ya'ni ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra boy yoki kambag'al oiladan chiqqanligi, oila

qoidalariga amal qilishi kabi qarashlar fransuz tili frazeologiyasida aynan *famille* leksemali iboralar orqali yorqin aks etadi.

“Butun oila”ga qaratilgan iboralar:

<i>biens de famille</i>	– oilaviy mulk;
<i>C'est de famille</i>	– ota meros an'ana;
<i>conseil de famille</i>	– oilaviy maslahat;
<i>des familles</i>	– odatiy udumlar;
<i>en famille</i>	– oila davrasida;
<i>esprit de famille</i>	– oilaviy inoqlik;
<i>famille de robe</i>	– badavlat oila;
<i>famille inadaptée</i>	– muammoli oila;
<i>papiers de famille</i>	– oilaga tegishli hujjatlar;
<i>les médecins de famille</i>	– oila shifokorlari;
<i>situation de famille</i>	– oilaviy ahvol;
<i>une famille de jardiniers</i>	– oilaviy sulola;
<i>grande famille</i>	– ahil oila;
<i>famille adoptive</i>	– asrab olingan oila;
<i>laver son linge sale en famille</i>	– oiladagi gaplarni ko'chaga olib chiqmaslik;
<i>famille traditionnelle</i>	– to'kis oila (bunda oila ota, ona va farzandlardan iboratligi inobatga olinadi);
<i>famille tuyau de poêle</i>	– axloqsiz oila yoki gomoseksual oila.

Yuqorida berib o'tilgan iboralar *oila* semasini qamrab olgan holda oilaning jamiyatdagi o'rniga nisbatan tavsiflangan. Masalan, oilaning moddiy, ma'naviy, psixologik, yosh va boshqa tarkibiy qismlarining o'ziga xos xususiyatlari mohiyat jihatidan iboralarida ham o'z aksini topadi. Shunday jihatlardan oilaga tegishli an'anaviy udumlar, oilaning ahil va inoqligi, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra badavlat yoki aksincha o'rta hol oila ekanligi, oiladagi kelishmovchiliklar yoki o'zaro tushunmovchiliklar sabab yuzaga keladigan oila notinchligi, hozirgi vaqtda g'arb mamlakatlarida ancha ommalashayotgan va ko'pchilik yoshlarni o'z girdobiga tortayotgan jirkanch kasallik, ya'ni gomoseksualizm (“besoqolbozlik”) tushunchalari ham fransuz tilidagi *famille* leksemasi ishtirokida yasalgan iboralar mazmunini tashkil etadi.

“Oiladan tashqari oila / guruh” ma'nosidagi iboralar:

<i>famille proche</i>	– <i>yaqin qarindosh</i> ; ushbu iborani fransuz xalqi madaniyatida <i>qarindoshlar</i> oila a'zosi sanalmasligi uchun <i>oiladan tashqari</i> semada qabul qilish mumkin.
<i>les deux cents familles</i>	– Fransiya bankining maxsus yirik 200 nafar aksiyadorlari; ushbu ibora orqali barchaga taniqli bo'lgan mashhur badavlat aksiyadorlar oilasi, ya'ni guruhi tasvirlangan.

Fransuz tilida *famille* so'zi orqali ifodalangan iboralar mazmuni oilaning tarkibiy tuzilishidan tashqari holatlarni ham aks ettirishi mumkin. Xususan, yuqoridagi “*oiladan tashqari oila*” semasiga qaratilgan iboralarida oila tarkibiga mansub bo'lmagan *yaqin qarindosh* hamda *yirik sarmoyadorlar guruhi* ma'nosini ifodalashda ham *famille* komponentidan foydalanilgan. Bu o'rinda oiladan tashqaridagi boshqa oila vakili yoki jamiyatdagi ma'lum bir toifadagi kishilar jamosi ham *oila* tarzida talqin qilingan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan semantik ma'nolar bo'yicha olib borilgan mazmuniy tahlilga ko'ra fransuzcha *famille* tarkibli iboralar semantikasi

asosan yuqorida ko'rib o'tilganidek besh xil (*ota* — *ona* — *farzand* — *butun oila* — *oiladan tashqari oila*) semantik doirani qamrab oladi. Ushbu semantik qamrovlarga mansub iboralar, ya'ni "*famille*" — "*oila*" komponentli iboralar fransuz frazeologiyasidagi o'z miqdoriy ko'rsatkichlariga ko'ra quyidagicha natijalarni aks ettiradi:


- *ota* mikrokonsepti — 12 foiz,
- *ona* mikrokonsepti — 8 foiz,
- *farzand* mikrokonsepti — 17 foiz,
- *butun oila* mikrokonsepti — 60 foiz,
- *oiladan tashqari oila* mikrokonsepti — 3 foiz .

Ularning bunday natijalari gradatsiya asosida kuzatilganda fransuzcha *famille* tarkibli iboralar *oila* ma'nosiga, ya'ni *butun oila* mazmuniga tegishli iboralar paradigmasi keltirilgan boshqa ma'nolarga nisbatan keng qamrovli ekanligini ko'rish mumkin. Frazeologik birliklarning o'ziga xos semantikasini, ularning nutqda qo'llanishi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning paydo bo'lish xarakteri hamda nutqda qo'llanish darajasi va ma'no ottenkalarini tahlil qilish tilimizning ifoda imkoniyatlari va uning boyligini to'laroq tasavvur qilish imkonini beradi (12, 65–79).

Xulosa

Olib borilgan tahlil *ota* mikrokonsepti *ona* mikrokonseptiga nisbatan, *bola* mikrokonsepti esa *ota-ona* mikrokonseptiga nisbatan ancha sermahsulligidan dalolat beradi. *Oiladan tashqari oila* / *guruh* semasi esa *famille* leksemali iboralarda sanoqli ko'rsatkichlardan iboratdir. Ushbu mulohazalarni mikrokonseptlarning gradatsion xususiyatlariga ko'ra quyidagi tasvir orqali yaqqolroq izohlash mumkin.

Fransuzcha *famille* leksemali iboralar semantikasining gradatsion tasviri:



Yuqorida ko'rib chiqilgan *famille* so'zining lug'aviy ma'nolari hamda ushbu komponentli iboralar ifodalaydigan umumiy ma'no va tushunchalarini qiyosiy tarzda tahlil qilish natijasida mazkur so'z ifodalaydigan ma'no ottenkalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Fransuzcha <i>famille</i> so'zining lug'atlarda keltirilgan ma'nolari	Fransuzcha <i>famille</i> komponentli iboralarning frazeologik ma'nolari
• bir tom ostida yashovchi odamlar to'plami; • qon-qardoshligi bir bo'lgan va bir joyda birlashgan ittifoqli guruh ; • ota-ona va bolalardan tashkil	• ota – oila rahnamosi ; • ota – oila boquvchisi; • ota – oila boshlig'i; • ota – oilada tartib-intizom o'rnatuvchi; • ona – farzand dunyoga keltiruvchi; • ona – oila g'amxo'ri;

• bir xil qondoshlikdagi kishilar guruhi; • ota-ona, farzandlar va xizmatkorlardan iborat oilaviy jamoa; • ma'lum bir er-xotinning farzandlari; • nikohdan o'tgan er-xotinlar yoki asrab olingan farzandlar; • avloddan avlodga o'tadigan oila vorisligi; • hayvon va o'simliklar dunyosini tasniflash.	• boy / kambag'al oiladan chiqqan farzand; • oila qoidalariga amal qiluvchi farzand; • bir sulolaga tegishli an'anaviy udumlar; • oila ahilligi / inoqligi; • badavlat / o'rta hol oila ; • oilaviy kelishmovchiliklar; • oila notinchligi; • yirik sarmoyadorlar guruhi; • gomoseksual oila; • oilaviy turish mumkin bo'lgan mehmonxona; • oila davrasida ko'riladigan kinofilm.
--	---

Oila konsepti doirasida aniqlangan mazkur semantik ma'nolar familie so'zining lug'aviy ma'nolarida, asosan, oila va uning tarkibiy a'zolariga ishora qilingan tavsiflarni o'z ichiga olsa, uning frazeologik ma'nolarida esa oila a'zolarining, ya'ni ota va onaning ijtimoiy jamiyatda oila oldida turgan burch va vazifalari, oila shakllari va oiladagi umummilliy qadriyatlar o'z aksini topgan.

Yuqorida ko'rib chiqilganidek, fransuz tilida mavjud frazeologik iboralar orasida "oila" konseptini o'zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasida *famille* leksemali iboralar o'ziga xos "model" sifatida ahamiyatga ega. Ularni yuqoridagi singari turli nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilish mumkin va bunday frazeologik birliklar ma'lum bir lingvistik tadqiqot obyekti sifatida keng tadqiq etilishi natijasida bir tomondan, ayrim lingvistik konseptual muammolar yechimiga yo'l topilsa, ikkinchi tomondan, fransuz frazeologiyasining lingvomadaniy, struktur-semantik va grammatik, qolaversa, pragmatik va kognitiv xususiyatlari o'zlarining to'laqonli tavsiflariga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, fransuz tilidagi "oila" konseptini o'zida aks ettiruvchi frazeologik birliklar tadqiqi ularning leksik-semantik sathdagi aniq o'rnini izohlashga ma'lum bir darajada yordam beradi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008. — 176 б.
2. [Chomsky N. Reflections on Language. — New-York: Pantheon, 1975. — 269 p.](#)
3. Dictionnaire de l'Académie française. — URL: <https://www.dicocitations.com/dico-mot-definition/60216/famille>
4. Doliyeva L.B. Fransuzcha emotiv frazeologizmlarning etimologik lug'ati. — Samarqand: SamDCHTI, 2023. — 94 b.
5. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at. — URL: www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Le Robert (Dico en ligne) <https://dictionnaire.lerobert.com/definition/famille>
7. [O'zbek tilining izohli lug'ati](#): 80 000 ortiq so'z va so'z birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.

8. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. — Nouv. ed. rev. et augm. — Paris, 1984. — 1035 p.
9. Сафаров Ш. Семантика. — Тошкент: “Ўбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2013. — 344 б.
10. [Стернин М.А. Методика исследования структуры концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. — Воронеж, 2001. — С.58–65.](#)
11. Сувонова Н. Некоторые референциальные свойства лексем, относящихся к предметам домашнего обихода во фразеологии (на материале французского и узбекского языков) // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. — 2023. — № 4. — Р. 35–41. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp35-41>
12. Сувонова Н., Долиева Л. Французча ономатопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон рухияти тасвири. // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”. — 2020. № 2 (31). — Р. 65–79.
13. Ташмухамедова Д., Умаров Б. Ота — оила устуни. Илмий-услубий кўлланма. — Тошкент: Tasvir nashriyot uyi, 2019. — 36 б.
14. Французско-русский фразеологический словарь / В.Г.Гак и др. / Под ред. Я.И.Рецкера. — М.: ГИИНС, 1963. — 1112 с.

References

1. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch* (High spirituality is an invincible force), Tashkent: Ma'naviyat, 2008, 176 p.
2. Chomsky N. *Reflections on Language*, New York: Pantheon, 1975, 269 p.
3. *Dictionnaire de l'Académie française*, available at: <https://www.dicocitations.com/dico-mot-definition/60216/famille>
4. Doliyeva L.B. *Fransuzcha emotiv frazeologizmlarning etimologik lug'ati* (Etymological Dictionary of French emotive phraseologisms), Samarqand: SamDCHTI, 2023, 94 p.
5. *Fransuzcha-o'zbekcha lug'at* (French-Uzbek dictionary), available at: www.ziyouz.com
6. *Le Robert (Dico en ligne)*, available at: <https://dictionnaire.lerobert.com/definition/famille>
7. *Uzbek tilining izohli lugati: 80 000 ortiq suz va suz birikmasi* (Explanatory Dictionary of the Uzbek language: more than 80,000 words and combinations of words), Tashkent: Uzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashrieti, 2006–2008.
8. Rey A., Chantreau S. *Dictionnaire des expressions et locutions*, Nouv. ed. rev. et augm, Paris, 1984, 1035 p.
9. Safarov Sh. *Semantika* (Semantics), Tashkent: “Uzbekiston millii ensiklopediyasi” davlat ilmii nashrieti, 2013, 344 p.
10. Sternin M.A. *Metodologicheskie problemy kognitivnoi lingvistiki* (Methodological problems of cognitive linguistics), Voronezh, 2001, pp.58–65.
11. Suvonova N. *Zarubezhnaya lingvistika i lingvodidaktika*, 2023, No 4, pp. 35–41. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp35-41>

12. Suvonova N., Dolieva L. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 2020, No 2 (31), pp. 65–79.
13. Tashmukhamedova D., Umarov B. *Ota – oila ustuni* (Father-family column), Tashkent: Tasvir nashriyot uyi, 2019, 36 p.
14. *Frantsuzsko-russkii frazeologicheskii slovar'* (French-Russian phraseological dictionary Edited by Ya.I.Retskera), Moscow: GIINS, 1963, 1112 p.